

---

## TOSHLOQDA “AYOLLAR DAFTARI”GA KIRITILGAN XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIKKA O‘QITILDI

Toshloq tumanida “Ayollar daftari”ga kiritilgan 80 nafar xotin-qizlar tadbirkorlikning turli yo‘nalishlari bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarini tugalladi. Shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati xotin-qizlar tadbirkorligi o‘quv markazi rahbari Diloromxon Mehmonova bir oy davomida o‘quv markazining tadbirkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qib bitirgan ayollarga sertifikatlarni topshirdi.

Sertifikatni qo‘lga kiritgan xotin-qizlar imtiyozli kredit olib, o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

2023-05-05 18:55:51